

**LINGVOMADANIY BIRLIKLAR TARJIMASIDA O'ZLASHTIRISH
(DOMESTICATION) VA BEGONALASHTIRISH (FOREIGNIZATION)
STRATEGIYALARINING O'RNI.
(S. SHELDONNING "IF TOMORROV COMES" ASARI MISOLIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19708272>

Abdixamidullo Xolmonovich Azimov

Mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti

E-mail: azimovhamid082@gmail.com

Ilmiy rahbar: G. N. Tojiyeva, filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarjimaning madaniy qadriyatlar yaratish jarayoni sifatidagi mohiyati hamda Lourens Venuti va Fridrix Schleirmaxer nazariyalari asosida begonalashtirish (foreignization) va o'zlashtirish (domestication) strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda S. Sheldonning "If Tomorrow Comes" asaridan olingan misollar orqali rus va o'zbek tarjimalarining qiyosiy tahlili amalga oshirilib, har ikki tilda qo'llangan strategiyalarning ustun va zaif tomonlari ochib beriladi. Natijada tarjima strategiyasi tanlovi maqsad auditoriya va kommunikativ vazifaga bevosita bog'liqligi ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar

tarjima, begonalashtirish, o'zlashtirish, foreignization, domestication, madaniy realiyalar, tarjima strategiyasi, qiyosiy tahlil, badiiy tarjima, Venuti, Shleirmaxer.

Аннотация

В данной статье рассматривается сущность перевода как процесса создания культурных ценностей, а также анализируются стратегии фореинизации (foreignization) и доместикации (domestication) на основе теорий Лауренс Венути и Фридрих Шлейрмахер. В исследовании проводится сравнительный анализ русских и узбекских переводов на материале произведения С. Шелдона «If Tomorrow Comes». Выявляются сильные и слабые стороны применяемых стратегий в обоих языках. В результате научно обосновывается, что выбор переводческой стратегии напрямую зависит от целевой аудитории и коммуникативной задачи.

Ключевые слова

перевод, фореинизация, доместикация, foreignization, domestication, культурные реалии, переводческая стратегия, сравнительный анализ, художественный перевод, Венути, Шлейермахер.

Abstract

This article examines translation as a process of creating cultural values and analyzes the strategies of foreignization and domestication based on the theories of Lawrence Venuti and Friedrich Schleiermacher. The study conducts a comparative analysis of Russian and Uzbek translations using examples from S. Sheldon's *"If Tomorrow Comes."* It identifies the strengths and weaknesses of the strategies applied in both languages. The findings demonstrate that the choice of translation strategy is directly dependent on the target audience and communicative purpose.

Keywords

translation, foreignization, domestication, cultural realia, translation strategy, comparative analysis, literary translation, Venuti, Schleiermacher.

Tarjima, har qanday madaniy amaliyot kabi, muayyan holatga qarab lingvistik va adabiy, diniy va siyosiy, tijoriy hamda ta'limiy qadriyatlarning yaratilishini o'z ichiga oladi. Tarjimani o'ziga xos qiladigan jihat shundaki, bu qadriyat yaratish jarayoni chet tilidagi matnning yozma talqini shaklida namoyon bo'ladi; bunda ushbu matnga xos bo'lgan qadriyatlar muqarrar ravishda kamayadi va mahalliy madaniy auditoriyaga ma'qul keladigan qadriyatlarga moslashish uchun qayta ko'rib chiqiladi.

Atoqli tarjimashunos olim Lourens Venuti ta'kidlaganidek, "Tarjima - bu, hatto tarjimon asl matn bilan qat'iy semantik ekvivalentlikni saqlagan va matn yuzaga kelgan chet tilidagi madaniy kontekstning ayrim jihatlarini ham o'z ichiga olgan taqdirda ham, chet tilidagi matnni mohiyatan mahalliy bo'lgan anglash shakllari va manfaatlar bilan "yozib chiqish" jarayonidir."⁷⁹ (Tarjima bizniki)

Qayta tarjimalar alohida holatni tashkil etadi, chunki ular yaratadigan qadriyatlar ko'pincha ikki karra mahalliy xarakterga ega bo'ladi: ular nafaqat tarjimon tomonidan chet matnga singdirilgan mahalliy qadriyatlar bilan, balki avvalgi tarjimada allaqachon mavjud bo'lgan qadriyatlar bilan ham belgilanadi.

⁷⁹ Lawrence Venuti. *Retranslations: The Creation of Value*. In the volume *Translation and Culture* Edited by Katherine M. Faull. Associated University Presses, Inc. 2004.

"Translation is an inscription of the foreign text with intelligibilities and interests that are fundamentally domestic, even when the translator maintains a strict semantic equivalence with the foreign text and incorporates aspects of the foreign-language cultural context where that text first emerged."

Albatta, qayta tarjimalar bevosita asl matndan ilhomlanib, oldindan mavjud tarjima haqida hech qanday xabardorliksiz ham yaratilishi mumkin. Biroq bu yerda ko'rib chiqilayotgan holatlar aynan shu muhim xabardorlikka ega bo'lib, ular o'zlarini bir yoki bir nechta avvalgi variantlardan farqlanishi orqali asoslaydi.

Tarjima, aslida, muallifning "til birliklari orqali individual ifoda etishqudrati"ni hamda "tilning o'ziga xos intuitiv tizimi va kayfiyat darajalari bilan belgilanadigan ruhini" kommunikativ tarzda yetkazishdan iboratdir.

Atoqli tarjimashunos olim Katerin Foll ta'kidlaganidek, Tarjimonning vazifasi - asl matndagi o'quvchi va matn o'rtasidagi munosabatni xorijiy tilda qayta tiklashdan iborat bo'lib, bunda xorijiy o'quvchi bir xil madaniy leksikaga ega emasligi inobatga olinishi zarur.⁸⁰

Fridrix Shleirmaxerning ta'kidlashicha, tarjimaning mavjud ikki usuli - parafraz va imitatsiya - asl matnning o'quvchilariga ko'rsatadigan "Wirkung" (F. Shleirmaxer atamasi) (ta'sir)ini yetarli darajada ifodalash uchun qoniqarli metodlar hisoblanmaydi. Parafraz asl matn ma'nosiga yaqinlashadi, biroq buni so'zma-so'z tarjima orqali emas, balki qo'shimcha iboralar va so'zlar kiritish orqali amalga oshiradi; shu sababli u kontekstni yetkazishi mumkin, ammo matn qoldiradigan hissiy ta'sir yoki "impressiya"ni to'liq ifodalay olmaydi. Agar tarjimon til ichidagi psixologik va madaniy bog'liqliklarni qavs ichidagi izohlar yoki izohli eslatmalar orqali tushuntirishga urinadigan bo'lsa, tarjima asta-sekin xorijiy til matniga berilgan sharh (kommentariya)ga aylanib qolishi mumkin. Imitatsiya esa, aksincha, tafsilotlari jihatidan asl matndan farq qiluvchi, biroq imkon qadar uning ta'siriga yaqinlashadigan variantni yaratadi. Fridrix Shleirmaxerning fikriga ko'ra, bunday "tarjima" natijada mustaqil badiiy asarga aylanadi.

Tarjimon oldida turgan tanlovlarni umumlashtirar ekan, Friedrich Schleiermacher quyidagicha formulalaydi: "Tarjimon yoki muallifni imkon qadar o'z holicha qoldirib, o'quvchini unga tomon yaqinlashtiradi, yoxud o'quvchini o'z holicha qoldirib, muallifni unga tomon yaqinlashtiradi."⁸¹

Fridrix Shleirmaxer birinchi usulni - biz "begonalashtirish (foreignizatsiya)" deb atagan yondashuvni afzal biladi. Chunki aynan shu tarjima usuli orqali tarjima matnini o'qiyotgan o'quvchi doimiy ravishda "begonalik"ning mavjudligini his etadi va uning o'zgaligidan estetik zavq oladi.

Tillarning turli tarixiy taraqqiyoti va etimologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, Fridrix Shleirmaxer bir tildagi so'z va etimologiya o'rtasidagi munosabatlar

⁸⁰ Katherine M. Faull. Translation and Culture. Bucknell Review. 2004 by Associated University Presses, Inc. Canada. 15-16

⁸¹ Schleiermacher, Friedrich (1813) 'Über die verschieden en Methoden des Übersetzens', reprinted in Hans-Joachim Störig (ed.) Das Problem des Übersetzens. Darmstadt: Wissenschaftliche Buchgesellschaft, 38-70.

tizimini boshqa tilga to'liq ko'chirish imkonsizligini tan oladi. Biroq, tarjimon asl matnning o'ziga xos jihatlari va uning ohangdorligini imkon qadar qayta yaratishga intilishi lozim.

Tarjimashunoslikda "foreignizing" va "domesticating" (o'zlashtirish va begonalashtirish) - bu tarjima strategiyalarining ikki asosiy yo'nalishi bo'lib, ular ayniqsa badiiy asar tarjimasida muhim ahamiyatga ega. Ushbu tushunchalar Fridrix Shleirmaxer g'oyalariga borib taqaladi va keyinchalik Lourens Venuti tomonidan rivojlantirilgan.

Begonalashtirish (foreignizing) - bu tarjimada asl matnning milliy, madaniy va lingvistik xususiyatlarini saqlab qolish, ya'ni o'quvchini muallifga "yaqinlashtirish" strategiyasidir. Begonalashtirish (foreignizing) madaniy realiyalar saqlanadi, o'zga til strukturasi qisman saqlanishi mumkin, "begonalik effekti" seziladi va muallif uslubi maksimal darajada himoya qilinadi

Masalan, ingliz tilida yozilgan matndagi *He drank sake in a small izakaya* tarzida berilgan gapning o'zbek tiliga *U kichik izakayada sake ichdi* deb tarjima qilinishi bunga misol qilib olishimiz mumkin. Bunda "izakaya" va "sake" tushunchalari izohsiz qoldiriladi va o'z-o'zidan madaniy realiyalar saqlanadi, begonalik effekti seziladi va muallif uslubi saqlab qolinadi. Begonalashtirish (foreignizing) uslubi asl madaniyatni chuqurroq aks ettiradi va ilmiy va lingvokulturologik jihatdan qimmatli hisoblanadi, ammo oddiy kitobxon uchun tushunish qiyin bo'lishi mumkin. Tadqiqotimizning obyekti bo'lgan amerikalik atoqli yozuvchi S. Sheldonning "If Tomorrow Comes" asaridan keltirilgan misolni tahlilga tortamiz:

In the original: *She decided to break the news to Charles after dinner one evening. She had prepared a cassoulet for him in her apartment, and in her nervousness she had burned it. As she set the scorched meat and beans in front of him, she forgot her carefully rehearsed speech and wildly blurted out, 'I'm so sorry, Charles. I'm - pregnant.'* (1.15)

Russian translation: *Однажды вечером, после ужина, Трейси решила открыться Чарльзу. Приготовила ему у себя дома **кассуле**, но так нервничала, что пережарила блюдо. Поставила перед ним обуглившееся мясо с фасолью и, позабыв отрепетированную речь, внезапно выпалила:*

– Мне очень жаль, Чарльз. Я беременна. (2.10)

Uzbek translation: *Трейси бир куни кечки овқатдан кейин Чарльзга ян-гиликни айтишига қарор қилди. У ловия солиб гўшт қовураётди ҳаяжонланганидан тагини олдириб қўйди. Чарльзнинг олдига таги куйган овқатни қўйди-ю, олдиндан пухта ўйлаб қўйган гапи эсидан чиқиб қолди.*

Шундан сўнг томдан тараши тушгандек: - Чарльз, биласанми, мен ҳомиладорман, - деди. (3.11)

Yuqorida keltirilgan parchaga e'tibor qaratsak, asliyatdagi *cassoulet* so'zi rus tiliga begonalashtirish (foreignizing) usulini saqlagan holda *кассюле* tarzida tarjima qilingan. Ammo o'zbek tiliga *ловия билан гўшт қовуриш* tarzida *cassoulet* so'zining lug'aviy ma'nosini berib tarjima qilingan va begonalashtirish (foreignizing) usuli saqlanmagan. Bu hodisa tarjimada o'zlashtirish (domesticating) deb ataladi va o'quvchi uchun juda qulay hisoblanadi.

O'zlashtirish (domesticating) - bu tarjimada matnni o'quvchiga yaqinlashtirish, ya'ni begona unsurlarni mahalliy madaniyatga moslashtirish strategiyasidir. O'zlashtirish (domesticating) uslubida madaniy elementlar almashtiriladi yoki izohlanadi, matnni o'quvchi osonroq qabul qiladi, "begonalik" kamayadi va kitobxonning manfaati markazga qo'yiladi.

Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan *He drank sake in a small izakaya* tarzidagi gapni o'zbek tiliga *U kichik yapon choyxonasida ichimlik ichdi* deb tarjima qilinishini misol qilib olishmiz mumkin. Bunda yaqqol ko'rinadiki, o'zlashtirish (domesticating) uslubi kitobxon uchun qulay va tushunarli va matn tezroq qabul qilinadi, biroq asl madaniy rang yo'qolishi mumkin va muallif uslubiga zarar yetishi ehtimoli bor.

Yana bir misolni tahlilga tortamiz:

She undressed slowly, dreamily, and when she was naked, she selected a bright red negligee to wear so that the blood would not show. (1.9)

Она медленно, как во сне, разделась и, когда на ней ничего не осталось, взяла яркую красную ночную рубашку, чтобы не было заметно крови. (2.6)

Аёл хаёлга ботган куйи оҳиста ечинди. Барча уст-бошини ечиб бўлгач, қон доғлари билинмасин дея қирмизи рангли ички куйлагини танлади. (3.3)

Yuqorida keltirilgan parchaga e'tibor qaratsak, asliyatdagi *negligee* so'zi rus tiliga *ночную рубашку* tarzida va o'zbek tiliga ham rus tiliga monand *ички куйлагини* tarzida tarjima qilingan. Ya'ni rus tilidagi tarjimada ham, o'zbek tilidagi tarjimada ham begonalashtirish (foreignizing) uslubi saqlanmagan. Har ikki tilda ham tarjimonlar o'zlashtirish (domesticating) uslubida *negligee* so'zining lug'aviy ma'nosini berib tarjima qilgan, natijada tarjimada begonalashtirish (foreignizing) usuli saqlanmagan.

Mezoni	Begonalashtirish (foreignizing)	O'zlashtirish (domesticating)
Yo'nalish	Muallifga	Kitobxonga
Madaniyat	Saqlanadi	Moslashtiriladi

O'qish darajasi	Qiyinroq	Osonroq
Ta'siri	Begonalik hissi	Tanishlik hissi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Badiiy asarlarda bu ikki strategiya ko'pincha sof holda emas, balki aralash tarzda qo'llanadi. Masalan, begonalashtirish (foreignization) usuli madaniy realiyalarda asl muhitni saqlash maqsadida qo'llansa, o'zlashtirish (domestication) uslubi dialoglarda kitobxonga yaqinlashtirish, unga vaziyatni qulay yetkazish maqsadida qo'llanadi.

Zamonaviy tarjimashunoslikda eng maqbul yondashuv - bu muvozanatli strategiya bo'lib, unda tarjimon begonalashtirish (foreignizing) usuli orqali muallif uslubini saqlaydi (foreignizing), o'zlashtirish (domesticating) usuli orqali esa o'quvchining tushunishini ham ta'minlaydi.

Yana bir misolni tahlilga tortamiz:

In the original: *Charles was not interested in exercise, but Tracy enjoyed it, so on Sunday mornings she jogged along the West River Drive or on the promenade skirting the Schuylkill River. She joined a Saturday afternoon t'ai chi ch'uan class, and after an hour's workout, exhausted but exhilarated, she would meet Charles at his apartment. He was a gourmet cook, and he liked preparing esoteric dishes such as Moroccan **bistilla** and **guo bu i**, the dumplings of northern China, and **tahine de poulet au citron** for Tracy and himself. (1.15)*

Russian translation: *Чарльз не слишком любил физические упражнения, зато Трейси их обожала, и утром по воскресеньям они трусили по Уэст-ривер-драйв или по набережной Шуйлкил-ривер. По субботам вечером она ходила на занятия тай-чи-чуан и через час уставшая, но взбодрившаяся шла домой к Чарльзу. Он оказался поваром-гурманом и готовил для себя и Трейси экзотические блюда вроде марокканской бистиллы, или гоубули – китайских паровых пирожков, или тахинде-пулет-о-цитрон, то есть цыпленка с лимоном. (2.10)*

Uzbek translation: *Чарльз спорт билан шугулланмасди, Трейси бўлса хар якшанба эрталаб югурар ёки Скучкил дарёси соҳилида сайр қиларди. Шанба кунини у тай-чи-чуан курашига қатнашар ва бир соатлик машқдан кейин чарчаган бўлса ҳам, тетик ҳолатда Чарльз билан унинг уйида учрашар эди. Чарльз хақиқий пазанда сингари Хитой ва Марокаш таомларини кулинг ўргилсин қилиб ўзи тайёрларди. Хамирга ўралган олма дейсизми, тахин шарбатига димланган жўжа дейсизми... (3.10)*

Asliyatdagi matnda berilgan taom nomlari Moroccan bistilla, guo bu i, tahine de poulet au citron va sharqona mashq turi t'ai chi ch'uan kuchli madaniy yuklama (cultural load) ga ega bo'lib, tarjimada strategiya tanlashni talab qiladi.

Ruscha tarjimada «марокканской бистиллы, или гоубули – китайских паровых пирожков, или тахинде-пулет-о-цитрон...» taomlarning asl nomlari saqlangan holda berilgan. Тай-чи-чуан transliteratsiya qilingan. Bu tarjimonning manba madaniyatni maksimal darajada saqlashga intilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga ruscha tarjimada o'zlashtirish (domestikatsiya) elementlari ham kiritilgan, ya'ni asliyatdagi nomlarga гоубули – китайских паровых пирожков, то есть цыпленка с лимоном izoh ham berib o'tilgan, ya'ni, begonalashtirishni kamaytirish uchun minimal izohlovchi domestikatsiya ishlatilgan. Ruscha tarjimada tarjimon aralash strategiyadan, ham forinizatsiya ham domestikatsiyadan foydalangan. Forinizatsiyaga ancha ustunlik bergan.

O'zbekcha tarjimada «Хамирга ўралган олма дейсизми, тахин шарбатига димланган жўжа дейсизми...» tarzida berilgan tarjimada bistilla “хамирга ўралган олма” tahine de poulet au citron “тахин шарбатига димланган жўжа” tarzida domestikatsiya strategiyasiga kuchli ustunlik bergan holda o'g'irgan bo'lsa, guo bu i ga umuman aniq nom bilan berilmagan. Bu yerda asl madaniy birliklar moslashtirilgan va almashtirilgan. Asliyatdagi uchta aniq taom nomlari ko'rsatilmay umumiy tasvirga aylantirilgan. Shu bilan birga, tarjimon “кўлинг ўргилсин қилиб” tarzidagi sof o'zbekcha iboralar qo'llaganki, bu orqali tarjima matniga emotsional, milliy kolorit qo'shilgan va bu o'z navbatida matnni o'zbek o'quvchisiga yaqinlashtiradi, lekin asl ruhni kamaytiradi.

Aspekt	Ruscha tarjima	O'zbekcha tarjima
Madaniy nomlar	Saqlangan	O'zgartirilgan
Izohlar	Bor (cheklangan)	Moslashtirish ko'p
Strategiya	Begonalashtirish (Forinizatsiya) ustun	O'zlashtirish (Domestikatsiya) ustun

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, asarning ruscha tarjimasida tarjimon Fridrix Shleirmaxer modeliga yaqin yo'l tutib, o'quvchini “muallif tomonga olib boradi”, ya'ni begonalashtirish (foreignization) strategiyasiga katta ustunlik beradi. O'zbek tarjimasida esa tarjimon aksincha, matnni o'quvchiga moslashtirib, “muallifni o'quvchi tomonga olib keladi”, ya'ni o'zlashtirish (domestication) strategiyasiga ustunlik beradi. Natijada, ruscha tarjima madaniy autentiqlikni saqlaydi, o'zbekcha tarjima esa o'quvchi uchun qulaylik va tushunarlikni oshiradi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, tarjima strategiyasi tanlovi maqsad auditoriya va tarjima funksiyasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Sheldon, S. (1985) If tomorrow comes. United States: Warner Books.
2. Шелдон, С. (1985) Если наступит завтра. Москва: "АСТ".
3. Sheldon, S. (2018) Orziqib kutaman ertani. Toshkent: "Yangi Asr Avlodi".
4. Venuti, L. (2004) Retranslations: The Creation of Value. In the volume Translation and Culture Edited by Katherine M. Faull. Associated University Presses, Inc.
5. Katherine M. Faull. (2004) Translation and Culture. Bucknell Review. Associated University Presses, Inc. Canada.